

**1717 YIL FLORIO BENEVENI ELCHILIGI, FLORIO BENEVENINING
«RELYATSIYALARI» - BUXORO XONLIGIGA OID MANBALAR**

Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi

Tel: +998919058632

e-pochta sattorovfirdavs1601@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa va rus sayyoh va elchilarining O'rta Osiyoga qilgan sayohati va bu o'lka haqida yozgan asarlari haqida va rus elchilarining O'rta Osiyo xonliklari bilan qilgan diplomatik aloqalari haqida bayon qiladi.

Kalit so'zlar: Peterburg, Florio Beneveni, Pyotr I, Eron, Buxoro, Xiva, Nikolay Miner, Abdurahmon Tole', Abulfayzxon.

Аннотация: В данной статье описаны путешествия европейских и русских туристов и послов в Среднюю Азию и их сочинения об этой стране, а также дипломатические отношения русских послов со среднеазиатскими ханствами.

Ключевые слова: Петербург, Флорио Беневени, Петр I, Иран, Бухара, Хива, Николай Минер, Абдурахман Толе, Абульфайзхан.

Annotation: This article describes the travels of European and Russian tourists and ambassadors to Central Asia and their writings about this country, as well as the diplomatic relations of Russian ambassadors with Central Asian khanates.

Keywords: Petersburg, Florio Beneveni, Peter I, Iran, Bukhara, Khiva, Nikolai Miner, Abdurahman Tole', Abulfayzkhan.

1717 yil 17 iyulda Peterburgga Buxoro elchisi Qulibek o'z hamrohlari bilan keladi. U Buxoroga qaytishida Qulibek bilan birga Florio Beneveni elchiligi yuboriladi. Pyotr I ishonch yorliqlarini 1718 yil 9 iyulda imzolaydi. Elchilik 8 kishidan iborat bo'lib, uni xizmatkorlar va harbiy soqchilar kuzatib bordi. Asli kelib chiqishi

italyan bo'lgan F.Beneveni Buxoro xoniga topshirish uchun podsho yorlig'i berilgan elchiga yana bir muhim, maxfiy hujjat uning Buxorodagi faoliyatiga taaluqli 7 banddan iborat yo'l-yo'riq yoki dastur topshirildi. Bunda eng muhimi – sharqqa eltadigan suv va quruqlik yo'llarini, rus savdosini qanday qilib kengaytirish mumkinligini surishtirib bilish, xonni Rossiya bilan harbiy ittifoq tuzishga ko'ndirish va unga rus askarlari gvardiyasini taklif etish, oltin to'g'risida qaerdan, qancha qazib olishligini bilishdan iborat edi. Buxoro qurolli kuchlari tuzilmasini hamda ularning holatini ham aniqlash zarur edi. Elchi Buxoroning Eron, Xiva va Turkiya bilan o'zaro aloqalarini o'rganishga ham e'tibor berishi kerak edi. F.Beneveni elchiligi Buxoroda jami 3,5 yil (1721 6 noyabrda 1725 yil 8 aprelgacha) turdi. Elchilik xodimlari boy haqiqiy material to'plab, uni Sankt-Peterburg ochiq xat va shifrlangan matn tarzida jo'natib turdilar.

Florio Benevenining «relyatsiyalari» - buxoro xonligiga oid muhim manba.

XVI asr - XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarida murakkab tarixiy jarayonlar kechdi. Ularni o'rganish, voqea-hodisalarga to'g'ri va xolis baho berishda bu davrda yaratilgan manbalar mahalliy muarrixlarning asarlari, arxiv hujjatlari, O'rta Osiyo hududiga tashrif buyurgan elchilar, sayohatchilar, harbiylar va boshqa shaxslarning xotiralari muhim o'rin tutadi. Bu manbalar orasida Florio Beneveni relyatsiyalari katta ahamiyatga ega. Florio Beneveni 1718 yil 5 iyulda Pyotr I tomonidan Buxoroga yuboriladi⁴¹. Unga Buxoro hukmdoriga taqdim etish uchun podsho yorlig'i, shuningdek, xon, uning onasi, vazirlari va boshqalar uchun umumiy hajmi 3 ming rubldan iborat olmaxon, tulki mo'ynalari, terilar, movut, chinni idishlar, qo'rg'oshindan yasalgan idishlar, «kurantli, jangovar katta soat, kumushdan yasalgan ingliz soatlari va boshqa buyumlardan iborat sovg'a-salomlar berilgan. Elchiga, shuningdek, yana bir muhim maxfiy hujjat uning Buxorodagi faoliyatiga oid yetti banddan iborat qo'llanma berilgan edi. Unda asosan Sharqqa olib boradigan suv va

⁴¹ Ergashev B, Manbashunoslik va Tarixshunoslik, Samarqand, 2021. B – 132.

karvon yo'llarini o'rganish, u yerlarda rus savdosini qanday kengaytirish, O'rta Osiyo hukmdorini Rossiya bilan harbiy ittifoqqa ko'ndirish, uning gvardiyasiga rus soldatlarini kiritishni taklif etish va qaerda qancha oltin borligi haqida ma'lumotlar to'plash haqida ko'rsatmalar berilgan edi. Bu vazifalarni bajarish elchining uzoq muddat xonlikda bo'lishini talab qilar edi. Haqiqatan ham, Florio Beneveni o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun O'rta Osiyoda bir necha yil qolib ketishiga to'g'ri keldi.

Rus elchisi o'zi yurgan yo'l davomida kuzatgan tarixiy voqelikni juda mayda tafsilotlarigacha relyatsiya tarzida Sankt-Peterburgga tashqi ishlar kollegiyasiga jo'natib turgan. Buxoro xonligida bo'lgan vaqti davomida u «Buxoroda bo'lgan elchi Florio Benevenining qisqa jurnali»ni yozib boradi. Unda O'rta Osiyo xonliklarining ichki hayoti, siyosiy kurash, xususan, Buxoro va Xiva xonlarining o'zaro kelishmovchiliklari, mintaqadagi xalqaro aloqalar, xonlarning shaxsi va ularning tavsifi, xon amaldori va ularning axloqiy xislatlari, Buxoroda qanday tovarlar ishlab chiqarilishi va ularni sotish uchun qaerlarga olib borish haqida ma'lumot berishga harakat qilgan. U o'z xabarlari - «Relyatsiyalar»ini Rossiyaga turli shaxslar orqali jo'natib turadi⁴². Ular ichida mashhur grek tilmochi Ivan Dementev, boshqird mullasi Maksyut Yunusov, italyan kamerdineri Nikolay Miner bor edi. Bu shaxslar savdogarlar tarzida uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib, uch oydan olti oygacha bo'lgan vaqt davomida Rossiyaga yetib olganlar.

Xususan, Nikolay Miner 1723 yilning aprelida yozilgan xatni 1724 yil aprelidagina Moskvaga yetkazib olib keladi. Florio Beneveni 1723 yilning martida Tashqi ishlar kollegiyasidan Buxoroda rejalashtirilgan ishlarni bajarganligi bois Rossiyaga qaytish uchun ruxsat so'raydi. Rossiyadan unga ruxsat tezda yuboriladi. Biroq elchi ruxsatnomalar bayon etilgan bu xatni faqatgina 1725 yili oladi. Buxoro va Xiva xonlari Rus podshosiga umumiy hisobda 7461 rubl bo'lgan o'z sovg'alarini

⁴² Ergashev B, Manbashunoslik va Tarixshunoslik, Samarqand, 2021. B – 133-134.

jo'natadilar⁴³. Florio Beneveni Buxoroga kelganida, Buxoro xonligining siyosiy hayotini belgilaydigan asosiy xususiyatlar markaziy hokimiyatning susayishi, oliy hukmdorning amirlar va amaldorlar bilan umumiy til topa bilmasligi, turli urug'lar beklari faolligining kuchayishi va o'zaro urushlar, Xiva qo'shinla-rining Buxoro xonligiga bosqinchilik yurishlarining tez-tez amalga oshirib turilishi bilan ham xarakterlanadi. Mamlakatning ichki hayoti va tashqi holatiga xos bu xususiyatlar, ayniqsa, Ubaydullaxon (1702 - 1711) davrida o'zining yuqori nuqtasiga chiqdi. Rus elchisi Buxoro xonligida bo'lgan vaqtda mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda inqiroz kuzatilmoqda edi. Bu davr-da davlatni boshqargan Abulfayzxon (1711 - 1747) hukmronligini muarrix Abdurahmon Tole' quyidagicha ta'riflaydi: «Qisqa qilib aytganda, hukmdorning... hukmronlik yillarida hamma tomonlarda isyon va g'alayonlar kelib chiqib, o'zbeklar bir-birlari bilan dushman edilar»⁴⁴. Bu hukmdorni rus elchisi «yosh, mulohazasiz va harakatlari doimiy bo'lmagan» bir shaxs sifatida ta'riflaydi.1 Abulfayzxon davrida o'zining yuqori nuqtasiga chiqqan inqirozni Florio Beneve-ni ham eslatib, Toshkent, Xo'jand, Balx, Badaxshon.

Hisor va boshqa viloyatlar poytaxtlari bilan deyarli mustaqil mulklarga aylanganini ko'rsatib o'tgan edi. Siyosiy hayotda yuzaga kelgan bunday holat ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ham izdan chiqishi va notekis rivojlanishiga olib kelgan. Bu voqelikni Florio Beneveni ham qayd etib o'tgan. Uning 1722 yilgi ma'lumotiga ko'ra, siyosiy kuchlarning qarama-qarshiligi ayrim hukmron doira vakillarining mamlakatdan ketishiga va tashqaridan turib uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jiddiy putur yetkazishiga olib kelgan. Bunday shaxslardan biri dashtga ketishga majbur bo'lgan «Ko'r-otaliq» bo'lib, u dashtda «o'zbeklarning boshqa partizan otryadlari bilan do'stlashib, butun atrofda (Buxoroning) o'ziga qadar katta talonchiliklarni amalga oshirdi». Elchining alohida qayd qilishicha, nomi zikr etilgan bu shaxs «hech bir qishloqni butunligicha qoldirmadi, hamma narsani talab olib ketdi. Bundan tashqari,

⁴³ O'sha joyda. B – 134.

⁴⁴ Ergashev B, Manbashunoslik va Tarixshunoslik, Samarqand, 2021. B – 135.



shahar oziq-ovqat va boshqa zaxiralardan shunday mahrum bo'ldiki, oddiy xalq o'z bolalarini sotishga va shu yo'l bilan kun ko'rishga majbur bo'ldi, ayrimlar esa ochlikdan o'ldilar».

Siyosiy notinchlik va iqtisodiy buhronlar davrida shahar va qish-loq ahlidan turli soliqlar sifatida tushadigan daromad hisobiga yashovchi oliy tabaqa vakillari nochor ahvolga tushib qolganlar. Buni Florio Benevenining quyidagi so'zlaridan ham kuzatish mumkin: «Xonning o'zi tuyalari, otlari va qoramolining yarmidan ko'pini yo'qotdi va oziq-ovqat va yem-xashakka ehtiyoj sezib, ularni pulga sotib olishga majbur bo'ldi», - deb qayd etadi rus elchisi. Rus elchisi Buxoro xonligini Rossiyaga harbiy ittifoqchi bo'la olmasligini ham o'z xabarlarida asoslab bergan. U Buxoro xonligiga kelgan vaqtida xonlikda «hech qanday muntazam qo'shin» yo'qligi, shuningdek, bu davlatda loydan qurilgan ayrim qal'alardan tashqari harbiy fortlar mavjud emasligini ham qayd etib o'tadi. U muomalada bo'lgan qurollar haqida fikr yuritib, bu yerda artilleriya yo'qligi, askarlar asosan piltali miltiqlarga ega ekanligi haqida guvohlik beradi. «Ularning qurollari tatarlarniki kabi, ba'zilarida o't oldiriladigan piltali qurol bor, boshqalarida esa faqat nayza va kamon bor», - deb qayd etadi Beneveni. Florio Benevenining Buxoro to'plari haqidagi ma'lumoti alohida diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, Buxoro xonligida 14 to'p bo'lib, ular shayboniy hukmdor Abdullaxondan ashtarxoniy hukmdorlariga meros tariqasida o'tgan. Rus elchisi bu to'plar Abdullaxonga mo'g'ullardan o'tgan degan noto'g'ri fikrni bildiradi. Aslida, bu to'plar va o'qotar qurollar Buxoro xonligining o'zida Abdullaxon davrida tayyorlangan edi. Bu yerda zambaraklar, manjaniqlar va to'fanglar (miltiqlar) ham ishlab chiqarilgan.

Xulosa O'rta Osiyo tabiatini o'rganish juda qadim davrlardan boshlangan. Chunki O'rta Osiyo G'arb va Sharq davlatlari o'rtasidagi muhim xalqaro savdo yo'lida joylashgan. O'rta Osiyo haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Gerodot, Strabon, Arrian, Ptolemey va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin. O'rta Osiyo tabiatini o'rganish tarixi bir necha bosqichdan iborat. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi

tomonidan bosib olinishi arafasidan to oktabr to'ntarishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'rta Osiyo bu bosqichda har tomonlama turli maqsadlarda, shu jumladan, harbiy maqsadda o'rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

12. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) //Mas'ul muharrir: B.Ahmedov. –T.: —Sharq, 2000, -368 bet.
Mustaqil O'zbekiston tarixining dastlabki sahifalari: (Davriy to'plam) № 3 // Mas'ul muharrir: D.Alimova; - T.: —Sharq, 2000, - 224 bet.
13. Belyaev Ye. Istoriko-sotsiologicheskaya teoriya Ibn Xalduna. //M.; Istorikmarksist. 1940, № 4, № 5. –78-84 str.
14. Sattorov F, “Mirzo Ulug'bek tarjimai holi va Ulug'bek qabrining ochilishi va uning tavsifi masalalari”, Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 2022.
15. Kamoliddin Sh, Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar, Toshkent, 2019. 23-31 b.
16. Ergashev B, Manbashunoslik va Tarixshunoslik, Samarqand, 2021. 125-143 b.
5. Nazirov B.S, Sattorov F, Panjiyev J. “O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Surxondaryo viloyati misolida)” Toshkent, 2023 y.
Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi. –T.: —Sharq, 2001, -464 bet
Turkestan v nachaleXX veka: K istorii istokov natsional'noy nezavisimosti. –T.: —SHark, 2000, - 672 str.
17. O'zbekistonning yangi tarixi. -T.: —Sharq, 2000, tom 1; - 464 bet; tom 2; - 688 bet; tom 3; - 560 bet.

18. Sattorov F, “Anushteginiylar sulolasi davrida Xorazmda davlatchilik jarayonlarining yuksak bosqichlarga ko’tarilishi”, Science and education scientific 2022.
19. Ziyoev H. Tarixning ochilmagan sahifalari. – T.; —Mehnat, 2003, - 232 bet.